



SIRDARYO VILOYATI SIRDARYO TUMANI HOKIMI Q A R O R I

2022 - yil 6 - may

169-9-128-Q/22

Sirdaryo tuman hokimligi

“Sirdaryo tumanlararo iqtisodiy sudining 2022-yil 17-fevral kungi 4-1202-2202/3-sonli hamda Sirdaryo viloyati sudining 2022-yil 18-mart kungi 4-1202-2202/3-sonli “Apelatsiya shikoyatini qaytarish haqida”gi ajrim qarorlari to‘g‘risida.

Sirdaryo viloyat Sudining 2022-yil 18-mart kungi 4-1202-2202/3-sonli hamda Sirdaryo tumanlararo iqtisodiy sudining 2022-yil 17-fevral kungi 4-1202-2202/3-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Sirdaryo viloyat boshqarmasi va javobgar “Kristall Fuyin Industgies” MCHJ shakidagi qo‘shma korxonasi hamda balansda saqlovchi Sirdaryo tumani hokimiyati o‘rtasidagi 2016-yil 29-dekabrda 24/2016-sonli oldi-sotdi shartnomasini bekor qilish haqida”gi Ajrim qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asoslanib, **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo tumanlararo iqtisodiy sudining 2022-yil 17-fevral kungi 4-1202-2202/3-sonli ajrim qarori hamda Sirdaryo viloyat sudining 2022-yil 18-mart kungi 4-1202-2202/3-sonli “Apelatsiya shikoyatini qaytarish haqida”gi ajrim qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo tumani Adolat (Kamariston) mahallasi manzilida joylashgan “**Kristall Fuyin Industgies**” MCHJ shaklidagi qo‘shma korxonasi tegishli bo‘lgan bino-inshootlar va unga tegishli yer maydoni sudning hal qiluv qarori va ijro varaqasiga asosan Sirdaryo tumani hokimligi balansiga qaytarib olinsin.

3. Kadastrlar palatasi tuman filiali rahbari S.Ziyadullayev zimmasiga ushbu balansga olingan bino-inshootlari kadastr xujjatlarini Sirdaryo tuman hokimligi nomiga rasmiylashtirish va ro‘yxatdan o‘tkazib berish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari B.Berdiev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими



B.Mirzaqulov